

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2025

5-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

5-сан 2025

сентябрь-октябрь

Қарақалпақстан Республикасы мектепке шекемги хәм мектеп билимлендириўи
министрлиги, Қары Ниязий атындағы Тәрбия педагогикасы миллий институты
Қарақалпақстан филиалы

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Асқарбай НИЯЗОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Сабит НУРЖАНОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Захия НАРИМБЕТОВА
Сапардурды АБАЕВ	Хушбоқ НОРБҰТАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Ойниса МУСУРМОНОВА
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Мавлюда АЧИЛОВА	Сафо МАТЧОН
Азизжан АБДАЗИМОВ	Шуқурилло МАРДОНОВ
Шухрат АБДУЛЛАЕВ	Абдулхамид МИРЗАЕВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Шахло МИРЗАЕВА
Злийха ОРАЗЫМБЕТОВА	Дармонжон МАХМУДОВА
Мансурбек ОНГАРОВ	Абдимурат ЕСЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Даулетназар СЕЙИТКАСЫМОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Раъно ОРИПОВА
Марифжон АХМЕДОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Гулзабира БАБАШЕВА	Норим РАХМАНОВ
Ўмида БАҲАДИРОВА	Мукаддас РАХМАНОВА
Фархад БАБАШЕВ	Светлана СМЕРНОВА (Москва, Россия)
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Тажибай САПАРБАЕВ
Гулбахар БЕКИМБЕТОВА	Мухаббат САЛАЕВА
Комил ГУЛЯМОВ	Гўзал СОДИҚОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Улбосын СЕЙТЖАНОВА
Асқар ДЖУМАШЕВ	Айдын СУЛТАНОВА
Дилдора ДАВРОНОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Нурзода ТОШЕВА
Масуда ЗАЙНИТДИНОВА	Қуанишбек ТҮРЕКЕЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Айсүлу ЖАНАБЕРГЕНОВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Амангелди ҚАМАЛОВ
Шохида ИСТАМОВА	Тажикал КУДАЙБЕРГЕНОВА
ВОХИД КАРАЕВ	Дилором ШАМСИЕВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Ойбахор ШАМИЕВА
Сарсенбай КАЗАХБАЕВ	Ризамат ШОДИЕВ
Мохира КУВВАТОВА	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Комилжон ҚАРИМОВ	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Джавдод ПҰЛАТОВ	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Пердебай НАЖИМОВ	Гулрухсор ЭРҒАШЕВА
Искендер НАЖИМОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ
	Гулара ЮСУПОВА



Astanova M. Ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya sifatini baholash uchun axborot tizimlariga qo'yiladigan talablar	159
Makamov A.X. O'quvchilarni innovatsion yondashuvlar asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish muhim pedagogik muammo sifatida	165
Tojiboyev A.R. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarilariining ma'naviy-axloqiy sifatlarini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish muhim pedagogik muammo sifatida	172
Bayniyazova G. Духовно-нравственные основы непрерывного образования в Республике Узбекистане	178
Рахимов Б.Х. Качество образования как гарантия повышения интеллектуального потенциала будущих учителей	184

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙҲ, ФИЛОСОФИЯ

Hakimov H.G. Milliy kurash turlarining kelib chiqishi va rivojlanish tarixi hamda metodikasi	190
Suyarov A.M. IX–XV asrlarda o'rta osiyoda yashagan buyuk mutafakkirlarning iqtisodiy qarashlari	195

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Djumabaev N. Kub koren' qatnasqan a'latpalardi'n manislerin tabiw usillari	200
Paluanova A.D. Fizikadan klastan tis jumislardi sholkemlestiriw ham olardi'n ahmiyeti	204
Аширбекова С.У., Ешбаева М. Формирование критического мышления при изучении оптики в школе	208
Аширбекова С.У., Сейтмуратова Г. Использование историй и нарратива в преподавании астрономии в школе	215

БАСЛАЎШИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӨРБИЯ

Utebaev T.T. Kishi jastagi mektep oqiwhilarina ruxiyliq tarbiya beriwde xaliq pedagogikasini' ahmiyeti	223
Уразимова Т.В. Мектепке шекемги жастағы балаларды руўхый-деретиўшилиқ тәрбиялаўдың тийкарлары	228
Oteniyazova Sh.E. Balalardi' adep-ikramliliqqa tarbiyalawda milliy miyraslarimizdi'n tutqan orn'i	234
Jabbarbergenov Sh.E. Esitiwinde kemshiligi bolgan balalardi social omirge maslastiriwda pedagogikaliq ham psixologiyaliq jantasiw maseleleri	240
Abdurashidov A.A. Bola tarbiyasida oilaning o'rni masalalari	244
Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	249
Suvanova S.B. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda rivojlantiruvchi markazlar asosida ekalogik madaniyatini rivojlantirishda xorij tajribasi	254
Abdullajonova Sh., Meliq'ziyeva M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining huquqiy bilimlarini rvojlantirishning pedagogik asoslari	260
Yarmatov Sh. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faolligini rivojlantirish mazmuni	264
Tajimuratov A.J. Logoritmika – erta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning samarali vositasi	269
Dauletmuratova S.Z. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar	273
Jumasheva G.X., Tursinbaeva A.M. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasining nazariy asoslari	277
Jumasheva G.X., Bayjanov T.J., Nurniyazova G.D. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"ning mazmun va mohiyati	281

IX–XV ASRLARDA O‘RTA OSIYODA YASHAGAN BUYUK MUTAFAKKIRLARNING IQTISODIY QARASHLARI

Suyarov A.M.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Menegment kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Tayanch sozlar: iqtisodiy qarashlar, o‘rta asrlar, hunarmandchilik, adolatli taqsimot, savdo-sotiq munosabatlari, iqtisodiy prognozlash usullari, davlat boshqaruvi, mehnat, iqtisodiy tafakkur, tarixiy meros, zamonaviy iqtisodiyot.

Ключевые слова: экономические воззрения, средние века, ремесла, справедливое распределение, торговые отношения, методы экономического прогнозирования, государственное управление, труд, экономическое мышление, историческое наследие, современная экономика.

Key words: economic views, middle ages, crafts, fair distribution, trade relations, economic forecasting methods, public administration, labor, economic thinking, historical heritage, modern economy

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada IX–XV asrlar davomida O‘rta Osiyo hududida yashab, ilm-fan va tafakkur tarixida o‘zidan o‘chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkirlarning iqtisodiy qarashlari tahlil etiladi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino kabi allomalarning inson ehtiyojlari, mehnatning jamiyatdagi roli, moddiy boyliklar taqsimoti, davlat boshqaruvidagi iqtisodiy muvozanat kabi dolzarb masalalarga bergan yondashuvlari chuqur tahlil qilinadi. Maqolada ushbu mutafakkirlarning iqtisodiy fikrlari nafaqat o‘z davrining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini anglashda, balki bugungi zamonaviy iqtisodiy nazariyalarning shakllanishida ham muhim poydevor bo‘lgani yoritib beriladi.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируются экономические взгляды великих мыслителей, живших в Средней Азии в IX–XV веках и оставивших неизгладимый след в истории науки и мысли. В частности, глубоко анализируются подходы таких ученых, как Абу Наср аль-Фараби, Абу Райхан аль-Бируни и Абу Али ибн Сина к таким актуальным вопросам, как потребности человека, роль труда в обществе, распределение материальных благ и экономический баланс в государственном управлении. В статье подчеркивается, как экономические взгляды этих мыслителей стали важной основой не только для понимания социально-экономической жизни своего времени, но и для формирования современных экономических теорий сегодня.

SUMMARY:

The article analyzes the economic views of great thinkers who lived in Central Asia in the 9th–15th centuries and left an indelible mark on the history of science and thought. In particular, the approaches of such scholars as Abu Nasr al-Farabi, Abu Rayhan al-Biruni and Abu Ali ibn Sina to



such topical issues as human needs, the role of labor in society, the distribution of material goods and the economic balance in public administration are deeply analyzed. The article emphasizes how the economic views of these thinkers became an important basis not only for understanding the socio-economic life of their time, but also for the formation of modern economic theories today.

Insoniyat tarixida iqtisodiy fikrlar taraqqiyoti har doim jamiyat taraqqiyoti, turmush tarzining murakkablashuvi va ehtiyojlarning ortib borishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Ayniqsa, qadimiy va o'rta asrlarda yashagan mutafakkirlar bu borada hozirgi iqtisodiy nazariyalarga zamin yaratgan muhim g'oyalarni ilgari surganlar. IX–XV asrlar orasida O'rta Osiyoda yuzaga kelgan ilm-fan va ma'rifat uyg'onishi bu hududni nafaqat Sharq, balki butun dunyo tamaddunining muhim markaziga aylantirdi. Aynan shu davrda yashab ijod qilgan mutafakkirlar – Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Xaldun kabi allomalar iqtisodiyotga oid ko'plab nazariy va amaliy g'oyalarni o'z asarlarida ilgari surganlar.

Ular iqtisodiy munosabatlarni alohida fan sifatida emas, balki inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar, ehtiyojlar va mehnat vositasida ifodalangan tabiiy jarayon sifatida tushunishga harakat qilganlar. Bu davr olimlari iqtisodiy masalalarni ko'proq axloqiy, falsafiy, siyosiy va ijtimoiy kontekstda tahlil qilgan bo'lsalar-da, ularning qarashlari hozirgi iqtisodiy nazariyalar uchun muhim tarixiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, bu mutafakkirlarning fikrlarida iqtisodiyotga faqat moddiy manfaatlar prizmasidan emas, balki insoniy qadriyatlar, axloq, bilim, mehnat va jamoaviylik orqali qarash holatini kuzatamiz. Ular jamiyat taraqqiyoti va davlat barqarorligining asosi sifatida bilim, adolat, hunar va mehnatni ilgari surganlar. Bugun global iqtisodiy muammolar va ijtimoiy tengsizlik muhokama qilinayotgan bir davrda o'sha davrning iqtisodiy-falsafiy qarashlarini o'rganish nafaqat tarixiy qiziqish, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Abu Nasr Forobiy jamiyat shakllanishining asosiy sababi sifatida insonlarning moddiy ehtiyojlarini ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, har bir inson yashashi va kamol topishi uchun boshqa odamlarga muhtoj bo'ladi. Bu ehtiyoj esa jamiyatning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Forobiy mehnat turlari, hunarmandchilik va moddiy boylik yaratish vositalarini o'rgangan, biroq iqtisodiy almashinuv — ya'ni ayirboshlashning mexanizmlarini to'liq tushuntirib bera olmagan. Uning fikricha, adolatli jamiyat – bu o'zaro yordam, do'stlik va halollik ustiga qurilgan jamiyatdir.

Ibn Sino fikricha, inson yashashi uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpana kerak. Ammo bu ehtiyojlar faqat tabiatdan emas, balki insonning o'z mehnati

orqali qondiriladi. Shu nuqtai nazardan u dehqonchilik, hunarmandchilik va boshqa iqtisodiy faoliyatlarni inson hayoti uchun zarur omillar deb bilgan. U insonni jamiyatda yashashga majbur qiluvchi asosiy omil sifatida o‘zaro yordam va ijtimoiy muloqot zarurligini ko‘rsatib o‘tadi. Ibn Sino jamiyatdagi moddiy ehtiyoj va mehnatning o‘zaro bog‘liqligini chuqur tahlil qilgan: «Xayvon tabiat ne‘matlariga qanoat qiladi, insonga esa tabiat ne‘matlari kamlik qiladi» - degan fikri bilan u insonning faoliyatga bo‘lgan tabiiy ehtiyojini asoslab bergan. Bu bilan u Forobiy fikrlarini yanada rivojlantirgan va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga amaliy yondashuv olib kirgan.

Ibn Sino ilgari surgan ideal davlat g‘oyasi uning iqtisodiy qarashlarining kulminatsiyasi hisoblanadi. Bu g‘oyada u quyidagi asosiy tamoyillarni ilgari suradi:

1. Har bir fuqaro o‘z foydasi uchun mehnat qilishi kerak.
2. Moddiy boyliklar adolatli taqsimlanib, haddan ziyod boylik va ashaddiy qashshoqlik mavjud bo‘lmasligi lozim.
3. Halol mehnat va savdo urushlarning oldini oladi, xalqaro mojarolar tinch yo‘l bilan hal qilinadi.
4. Ideal jamiyatda odamlar murosa, quvonch va madaniyatga intilib yashaydilar, bu esa ularning uzoq umr ko‘rishiga ham xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniy iqtisodiy va tabiiy-geografik munosabatlarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilgan. Uning ilmiy qarashlarida savdo yo‘llarining, ayniqsa Ipak yo‘lining iqtisodiy taraqqiyotga ko‘rsatgan ta‘siri alohida o‘rin egallaydi. Beruniy xalq xo‘jaligi tarmoqlari, foydali qazilmalar, yer-suv resurslari haqida aniq ilmiy ma‘lumotlar to‘plagan va ularni iqtisodiy faoliyat bilan bog‘lab bergan. Uning asarlarida iqtisodiy geografiyaning ilk tamoyillarini ko‘rish mumkin.

Al-Xorazmiy raqamlar, hisob-kitob va algebra ilmini rivojlantirib, iqtisodiy hisob-kitoblar, savdo-sotiq va moliyaviy tizimlar uchun muhim poydevor yaratgan. Uning “Al-jabr va al-muqobala” asari nafaqat matematika tarixida, balki iqtisodiy nazariyalar asosida ham katta ahamiyatga ega. Bugungi kun moliyaviy modellari va iqtisodiy prognozlash usullari bu ilmning zamonaviy davomidir.

Amir Temur iqtisodiy barqarorlikni davlat qudratining negizi deb bilgan. Uning fikricha, har qanday harbiy yoki siyosiy kuch avvalo iqtisodiy asosga tayanmog‘i zarur. Shu bois u bosib olingan hududlarda eng avvalo iqtisodiy tartibni tiklash, moliyaviy nazorat o‘rnatish, ishlab chiqarish va savdo faoliyatini yo‘lga qo‘yishga intilgan. Amir Temur Buyuk Ipak yo‘li va unga tutash boshqa muhim savdo yo‘llarining xavfsizligini ta‘minlashga katta e‘tibor qaratgan. U



o'z yurishlarida strategik savdo yo'llarini egallashga harakat qilgan va ularda tartib-intizom o'rnatgan. Savdogarlar uchun bojxona va soliq yengilliklari joriy qilgan. Natijada, xalqaro savdo rivojlangan, iqtisodiy aloqalar kengaygan va Temuriylar davlati moliyaviy mustahkamlikka erishgan. Temur soliq yig'ish ishlarini tartibga solgan, zo'ravonlik bilan emas, balki adolatli tartibda soliqlar undirilishini ta'minlagan. Soliq stavkalari aholining turmush darajasi va iqtisodiy holatidan kelib chiqib belgilangani tufayli ijtimoiy norozilik kam bo'lgan. Ayniqsa, hunarmandlar va dehqonlarga alohida imtiyozlar berilgan.

Amir Temur vafotidan keyin Shohruh va Ulugbek (1394-1449) podsholigi (1409-1449) davrida iqtisodiyot yaxshi rivojlandi. Ayniqsa, qoshni mamlakatlar bilan savdo-sotiq munosabatlari osdi. Bu Movarounnahrda (arabcha "daryo ortidagi" (mamlakat) degani) 1428 yilda Ulugbek tomonidan otkazilgan pul islohoti bilan bogliqdir. Jamiyatda pulning ahamiyatini yaxshi tushungan holda uning qadr-qimmatini oshirish uchun harakat qilingan. Osha davrda muomaladagi fulusiy chaqa pullar yengil vaznda bolib, savdo rivojiga tosiqlik qilgan. Mamlakat iqtisodiyotining ahvoli, ayniqsa, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, tovar-pul munosabatlari, milliy valuta mustahkamligiga bevosita bogliq. Ma'lumki, pulning uchta asosiy vazifasi mavjud:

- 1) qiymat olchovi;
- 2) almashuv vositasi;
- 3) jamgarma vositasi.

Agar pulning miqdori, uning nufuzi mustahkam bolmasa, iqtisodiyot posongisi, muvozanati buziladi. Shularni hisobga olib, vaqti-vaqti bilan pul islohotlari otkazib turiladi. 1428 yili Ulugbek tomonidan otkazilgan islohot katta ijobiy ahamiyatga ega boldi. Muomaladagi fulusiy pullar almashtirildi. Ulugbek davridagi islohotlar tovar pul munosabatlari rivojiga muhim hissa qo'shdi.

Bugungi global iqtisodiy muammolar fonida o'sha davr allomalarining g'oyalari hali-hanuz o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, jumladan barqaror rivojlanish, ijtimoiy iqtisodiyot, halollik iqtisodiyoti va adolatli soliq tizimi kabi tushunchalarning ildizlarini bu mutafakkirlarning merosida ko'rish mumkin. Ibn Xaldun iqtisodiy hayotda siyosiy barqarorlik va mehnat unumdorligining o'rni haqida chuqur fikr bildirgan. Ibn Sino esa inson mehnatining jamiyatdagi rolini alohida e'tirof etib, moddiy ehtiyojlar faqat tabiat ne'matlari bilan emas, balki ongli faoliyat - ya'ni ishlab chiqarish orqali qondirilishini asoslab bergan. Amir Temur esa o'z davlatchilik tajribasida iqtisodiy siyosatni markaziy o'ringa qo'ygan: soliq tizimi soddalashtirilgan, hunarmandchilik va savdo faol qo'llab-quvvatlangan,

yo‘l va infratuzilmalar rivojlantirilgan. Bu - bugungi iqtisodiy siyosatda ham dolzarb bo‘lgan asosiy tamoyillardir.

Demak, tarixiy tajriba va ilmiy meros bizga shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyot faqat raqamlar va statistik ko‘rsatkichlardan iborat emas. U jamiyatning axloqiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab tizimdir. Shunday ekan, o‘tmish allomalarining iqtisodiy tafakkuri hozirgi davr iqtisodiy muammolariga insonparvar, adolatli va uzoqni ko‘zlagan yondashuvlarni taklif eta oladi. Bu merosdan o‘rganish - bu nafaqat tarixga hurmat, balki kelajakni ongli ravishda barpo etish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir. Shunday ekan, bu tarixiy meros nafaqat ilmiy, balki amaliy nuqtai nazardan ham chuqur o‘rganilishi va zamonaviy iqtisodiy siyosatga integratsiya qilinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Amir Temur "Temur tuzluklari". T. 1991. 144 bet.
2. В. Зоҳидов "Мир идея и образ А.Навои" Т. 1961. 120 бет
3. Alisherr Navoiy " Mukammal asarlar to‘plami " T. 1992. 356 bet
4. Iqtisodiy ta‘limotlar tarixi T., O‘quv qo‘llanma, 2008. 190 bet.
5. A.Razzoqov "Iqtisodiy ta‘limotlar tarixi" Darslik .T. 2007. 320 bet.
6. Iqtisodiy ta‘limotlar tarixi fanidan muomoli maruza matnlari to‘plami. T.2003. 168 bet.

ISSN 2181-7138

Қары Ниязий атындағы Тәрбия педагогикасы миллий институты
Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ»**

№ 5

Нөкис — 2025

Басып шығыўға жуўапкер:

А. Тилегенов, С. Нуржанов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев, З. Ниязымбетова

Мәңзил: 230105 Нөкис қаласы, Әмир Темур көшесі, 179^а жай

Тел.: +998 61 224-01-34, факс: +998 61 224-23-00

e-mail: uznipnkkf@mail.uz,

mugallim-pednauk@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

www.KRTEACH.UZ

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзіндилер «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеміндеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 03.09.2025. Форматы 70x100^{1/8}

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нұсқасы _____ Буйыртпа №